

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

4-son (5-jild)
2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Maxmudov Mansurjon Abdug‘opporovich

TARIXIY ASARLAR VA ULARNI O‘RGANISH: MILLIY ZIYOLILAR TOMONIDAN

OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR 12-17

Qurbonov Xurshid Raupovich

O‘ZBEKISTONDAN JANUBIY URALGA SAFARBAR QILINGAN

“MEHNAT ARMIYACHILARI” VA ULARNING TA‘MINOTI 18-22

Salayev Fazliddin Shamsiddin o‘g‘li

O‘ZBEKISTONDA DEMOGRAFIYANING RIVOJLANISH TARIXI VA SHAKLLANISHI 23-28

Abbasov Behzod Baxtiyorovich

FARG‘ONA OBLASTIDA TASHKIL QILINGAN XO‘JALIKLARDA IJTIMOIIY

MUAMMOLAR VA KO‘CHIRILGAN AHOLINING YANGI SHAROITGA MOSLASHISHI

(1946-1965)..... 29-35

Mirzaliyev Ulug‘bek, Klichev Ulug‘bek

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY ARXIVLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

BORASIDAGI ISHLAR VA ISLOHOTLAR 36-39

Tursunova Gavhar Begmuradovna

ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIDA OLIB BORGAN

MA‘MURIY-SIYOSIY BOSHQARUV TIZIMI

(XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARI) 40-50

Vaxobov Doston Abdumannob o‘g‘li

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA MAKTAB, TIBBIYOT VA SOG‘LIQNI SAQLASH

XODIMLARINING G‘ALABAGA QO‘SHGAN HISSASI 51-54

Sodiqova Yulduzxon Maxamat qizi

O‘ZBEKISTONDA MAKTAB TA‘LIMINI ISLOH QILINISHI VA UNDAGI O‘ZGARISHLAR

(1991-2024 yy)..... 55-59

Maxmudov Umrbek Baxtiyorovich

QUYI SIRDARYOBO‘YI HUDUDLARIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK

TADQIQOTLAR VA ULARNING NATIJALARI 60-64

Yo‘ldosheva Gulbahor Nuriddinovna

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘RTA UMUMTA‘LIM MAKTEBLARINING

AHVOLI VA MODDIY – TEXNIKA BAZASINING MUSTAHKAMLANISHI

(QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARI MISOLIDA)..... 65-69

Mardiyeva Guzal Karimovna

XOTIN-QIZLARNING 1950-1980-YILLARDA SAMARQAND VILOYATI

ILM-FAN SOHASINI RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI 70-75

Narziyev Rustambek Xaydarovich

HARAKATLAR STRATEGIYASIDA NOGIRONLIGI BOR YOSHLAR UCHUN

YARATILGAN IMKONIYATLAR 76-80

<i>Abdullayev Ilhomjon Ikromjonovich</i> XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA NAMANGAN SHAHRINING IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI	81-87
<i>Sodiqova Maxbubaxon Raxmonaliyevna</i> O'ZBEKISTONNING MILLIY HUNARMANDCHILIGI RIVOJIDA IPAKCHILIKNING O'RNI	88-92
<i>G'ulomjon Jumanazarovich Axmedov</i> O'ZBEKISTON TARIXIDA KONCHILIK ISHI VA METALLURGIYA RIVOJLANISHI	93-99

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Abdullayev Zafarbek Safibullayevich</i> BARQARORLIK REYTINGI ORQALI FISKAL INTIZOM VA BIZNES MUHITINI RAG'BATLANTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI	100-116
<i>Юлдашева Надира Викторовна</i> «ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ЗАКУПКИ ПОД КОНТРОЛЕМ: ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УЗБЕКСКОЙ МОДЕЛИ МОНИТОРИНГА».....	117-123
<i>Maxsudov Sherzod Solijonovich</i> ERKIN IQTISODIY ZONALARDA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISH	124-128
<i>Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li</i> TURISTIK VA REKREATSION KLASTERNING MUVAFFAQIYATLI FAOLIYAT YURITISH TAMOYILLARINI TIZIMLASHTIRISH	129-135
<i>Xadimova Aziza Abdufattoyevna</i> SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK O'ZGARISHLARI VA IQTISODIY RIVOJLANISHI.....	136-145
<i>Tashpulatov Giyos Toxirovich</i> XORIJIY BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR REYTINGI VA RENKINGINI BAHOLASHDA KOMPLEKS YONDASHUVNING QO'LLANILISHI TAHLILI (ROSSIYADAGI BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR MISOLIDA)	146-159
<i>Ulug'muradova Nodira Berdimuradovna</i> O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA INSON KAPITALINING TA'SIRI	160-164
<i>Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi</i> “QUTIDA RO'YXATGA OLISH” (SHELF-REGISTRATION) AMALIYOTINI JORIY ETISH	165-169

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Komilov Ro'zi Rabiyeovich</i> OILA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MODDIY VA MA'NAVIY OMILLARNING FALSAFIY TAHLILI	170-172
<i>Хакимов Эркин</i> ЗНАНИЕ ЛОГИКИ КАК УСЛОВИЕ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ МЫШЛЕНИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ	173-180
<i>Usmonova Laylo Raxmatullayevna</i> SHARQ FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI.....	181-185
<i>Karimov Yo'ldosh Ergashevich</i> TARIXNI SOXTALASHTIRISHNING TARIXIY TAFAKKURGA TA'SIRI MASALALARI	186-191

<i>Azzamxodjaeva Shaxnoza Saiddmatmabovna</i> О ЦЕЛИ И СОДЕРЖАНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ЖИЗНИ, ДУХОВНОМ СОВЕРШЕНСТВЕ (ПО ПРОИЗВЕДЕНИЯМ АЛИШЕРА НАВАИ).....	192-195
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i> ZAMONAVIY IQTISODIY TARG'IBOT VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	197-204
<i>Evatov Salimjon</i> MARKAZIY OSIYODA TASAVVUFY TAFAKKUR RIVOJI: IX-XII ASRLAR MEROSI	205-209
<i>Turobov Yorqinjon Yoqub o'g'li</i> ISLOM TA'LIMOTIDA SIYOSAT VA HOKIMIYAT FALSAFASI	210-213
<i>Toshpulatov Odil Nodirovich</i> IJTIMOIY MUNOSABATLARDAMORALIZMVAIMMORALIZMNI OLDINI OLISHDAMAVJUD ME'YORLARNING AHAMIYATI	214-217
<i>Kunisheva Nadira Julanovna</i> "IJTIMOIY BAG'RIKENGLIK" TUSHUNCHASINI TADQIQ ETISHNING ILMIY-NAZARIY MASALALARI	218-223
<i>Eshpulatov Inoyat</i> FAXRIDDIN ROZIY YASHAGAN DAVR: IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYAT VAMA'NAVIY MUHIT	224-231
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Nuniyazova Shaxlo Ulugbekovna</i> O'ZBEK ONOMASTIKASIDA GIDRONIMLARNING LINGVOMADANIY SHAKLLANISHI	232-236
<i>Алиева Эльвина Аметовна</i> ЛЕКСИЧЕСКИЙ И ЛЕКСИКО-СИНТАКСИЧЕСКИЙ ПОВТОРЫ С РАСПРОСТРАНЕНИЕМ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОЧЕРКАХ М. ЦВЕТАЕВОЙ	237-243
<i>Usmanova Sevara</i> INGLIZ VA O'ZBEK TARIXIY ROMANLARIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TO'QIMA.....	244-251
<i>Ochilov Ulug'bek Sayfulloyevich</i> MAGIK REALIZMNING MADANIYAT VA ADABIYOTGA TA'SIRI	252-260
<i>Daminova Rahima Malikovna</i> ATOYI SHE'RIYATINING BADIY LATOFATI.....	261-266
<i>Yusupov Asror</i> PUBLITSISTIK MATNLARDA UCHROVCHI LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKLAR TARJIMASIGA LEKSIKOGRAFIK YONDASHUV	267-271
<i>Ruziyeva Nasiba Kenjayevna</i> VLADIMIR GEORGEVICH GAKNING TARJIMA MASALALARIGA DOIR TADQIQOTLARI	272-276
<i>Batirkhanova Madina Oybekovna</i> COMPONENT ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH FICTION.....	277-281
<i>Sirojiddinova Shakhribonu</i> THE FORMATION OF MYTHOLOGY AND THE INFLUENCING FACTORS.....	282-285

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Xodjiev Yunus Muxitdinovich

DAVLAT XIZMATLARI VA FUQAROLIK-HUQUQIY XIZMATLAR
TUSHUNCHASI HAMDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 286-292

Wang Cong

RESEARCH ON LEGAL ISSUES OF PERSONAL INFORMATION PROTECTION 293-300

Лу Адук

К ВОПРОСУ О ПОНЯТИИ И КЛАССИФИКАЦИИ ВИДОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ 301-310

Abdurashidova Zarina Turg'un qizi

FUQAROSIZLIKKA QARSHI MUROSASIZLIK: HUQUQIY CHORALARNING
NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI 311-315

Axmatov Olimjon Odilovich

“KRIPTO-AKTIVLAR VA VALYUTA QIMMATLIKLARINI QONUNGA XILOF
RAVISHDA Olish, O'TKAZISH VA AYIRBOSHLASH: IQTISODIY, HUQUQIY
XAVF-XATARLAR VA ULARNING OLDINI Olishda SUN'IY INTELLEKTNING
O'RNI” 316-322

Xatamov To'liqin Tojiddinovich

KUCHLI TA'SIR QILUVCHI VA GIYOHVANDLIK VOSITALARINI YANGI
TURLARINI NOQONUNIY MUOMALASI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNING
NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI 323-329

Kuchimova Shaxlo

VORISLIK HUQUQIDA MEROS MAJBURIYATI 330-337

O'rinova Dilshoda Adhamovna

OILAVIY ZO'RAVONLIK JINOYATINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI
HAMDA USHBU TURDAGI JINOYATLARDAGI AYOLLAR JABRLANISHINI
OLDINI Olish BO'YICHA FARG'ONA TAJRIBASI 338-347

Geng Zhimin

RESEARCH ON THE INDEPENDENCE OF THE INTERNATIONAL CRIMINAL COURT..... 348-351

Xidirov Mexroj Qilich o'g'li

ELEKTRON TO'LOV VOSITALARI ORQALI SODIR ETILADIGAN FIRIBGARLIK
JINOYATLARINING SABABLARI, ULARNING SODIR ETILISHIGA IMKON
BERUVCHI OMILLAR 352-357

Тулаганов Элмурод

ВОПРОСЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ
ТРАНСФОРМАЦИИ 358-367

Bozorboyev Farruh, Boboxonov Akromxon

DASTLABKI TERGOV BOSQICHIDA PROTSESSUAL HARAKATLARNI
SODDALASHTIRISH: XOLIS INSTITUTI 368-374

Abbosov Mirsulton Mirsharof o'g'li

JINOYAT QONUNCHILIGIDA SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI VA UNING
IJTIMOIY XAVFLILIGI 375-382

<i>Mamatov Islom Qosim o'g'li</i> DAVLAT XARIDLARI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI FOSH ETISH USULLARI, AMALIYOTDAGI MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR	383-392
<i>Kamilov Oybek</i> O'ZBEKISTONNING MIGRATSIYA SOHASIDA MINTAQAVIY TASHKILOTLAR VA XORIJIY DAVLATLAR BILAN HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	393-402
<i>Абборова Камола Саидмухторовна</i> ВЛИЯНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО КОММЕРЧЕСКОГО АРБИТРАЖА НА ИНВЕСТИЦИОННЫЙ КЛИМАТ УЗБЕКИСТАНА: ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ	403-410
<i>Ne'matova Muborak Odiljonovna</i> RAQAMLI FUQAROLIKNING MOHIYATI VA UNI SHAKLLANTIRISHGA OID DOLZARB MUAMMOLAR (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	411-418
<i>Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi</i> "HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTIGA SUN'IY INTELEKTNI INTEGRATSIYA QILISHNING AXLOQIY VA HUQUQIY MASALALARI"	419-427
<i>Agzamova Qizlarxon Baxtiyorovna</i> INSOFLI EGALLOVCHINING HUQUQIY MAQOMIGA OID AYRIM MASALALAR	428-432
<i>Shomirzayev Saxodulla, Sherkulov Azamat</i> VALYUTA QIMMATLIKLARINI BOJXONA CHEGARASIDAN OLIB O'TISH BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIKLARNI ANIQLASH VA JAVOBGARLIK ASOSLARI	433-441
<i>Jumanazarov Faxriddin Erkinovich</i> KONTRAFAKT MAHSULOTLAR KONTRABANDASI NATIJASIDA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI BUZILISHINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI	442-448
<i>Ergashev Sharifjon Shuhrat o'g'li</i> YASHIRIN IQTISODIYOTNING JAMIYAT IJTIMOY-IQTISODIY FAOLIYATIGA TA'SIRI VA UNGA QARSHI KURASHISHDA BOJXONA AUDITINING O'RNI	449-457
<i>Mansurov Arslon Askarovich</i> "IJTIMOIY DAVLAT" TAMOYILINING YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI HUQUQIY MAQOMI VA XALQARO TAJRIBA BILAN TAQQOSLAMA TAHLILI	458-463

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i> "JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA METODIKASI" FANIDAN NAZARIY MASHG'ULOTLARNI O'TKAZISH METODIKASI	464-470
<i>Yusubjanova Musharraf Tursunali qizi</i> EHTIMOLLAR NAZARIYASI VA MATEMATIK STATISTIKANI UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QITISH: XORIJIY TAJRIBA VA ILMIY YONDASHUVLAR	471-475
<i>Fayzullayeva Gulchexra, Kurbonova Gulmira</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOLLABORATIV O'QUV MUHITINI LOYIHALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLAR	476-481

<i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i> ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINING MAZMUNI VA TARKIBIY TUZILISHI.....	482-485
<i>Mirsanova Moxira Xusniddin qizi</i> FANTASTIK IFODA SHAKLLARI VA UNING BADIYYATI	486-491
<i>Tursinova Zoxida Sharabidinovna</i> TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MAKTAB O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI BAHOLASH MEKANIZMLARINING TAKOMILLASHUVIDA TA'LIM MENEJMENTINING O'RNI	492-496
<i>Раббимова Нодира Таштемировна</i> ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ИНФЕКЦИОННЫХ БОЛЕЗНЕЙ В ВУЗЕ	497-501

Received: 16 March 2025

Accepted: 5 April 2025

Published: 15 April 2025

Article / Original Paper

SOCIO-ECONOMIC LIFE OF THE CITY OF NAMANGAN AT THE END OF THE 19TH – EARLY 20TH CENTURY

Abdullayev Ilhomjon Ikromjonovich,

University of Business and Science

Higher educational institution,

Lecturer of the Department of Social Sciences

Abstract. This study is devoted to the study of the socio-economic life of the city of Namangan in the late 19th - early 20th centuries. During this period, the city achieved certain development in the fields of industry, trade and agriculture, and practical crafts and market relations expanded. The study analyzed the social structure of the city's population, crafts and trade activities, forms of ownership, and transport networks. It also covered the impact of the Jadid movement on the development of the city and changes in the field of education. The analysis based on the sources allows us to better understand the economic life and urbanization processes of the city of Namangan.

Keywords: History of Namangan, late 19th - early 20th centuries, socio-economic life, trade and crafts, farming and agriculture, markets and trade routes, factories and plants, workers and labor force, urbanization processes, population structure and demography, education and culture, Islam and religious life, transport and communication, management system and local government, modernization processes.

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA NAMANGAN SHAHRINING IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI

Abdullayev Ilhomjon Ikromjonovich,

University of Business and Science

oliy ta'lim muassasasi,

Ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Namangan shahrining ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o'rganishga bag'ishlangan. Ushbu davrda shahar sanoat, savdo va qishloq xo'jaligi sohalarida muayyan taraqqiyotga erishgan bo'lib, amaliy hunarmandchilik va bozor munosabatlari kengaygan. Tadqiqotda shahar aholisining ijtimoiy tarkibi, hunarmandchilik va savdo faoliyati, mulkchilik shakllari hamda transport tarmoqlari tahlil qilingan. Shuningdek, jadidchilik harakatining shahar rivojiga ta'siri va maorif sohasidagi o'zgarishlar ham yoritilgan. Manbalar asosida olib borilgan tahlillar Namangan shahrining iqtisodiy hayoti va urbanizatsiya jarayonlarini yaxshiroq anglash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Namangan tarixi, XIX asr oxiri – XX asr boshlari, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, savdo va hunarmandchilik, dehqonchilik va qishloq xo'jaligi, bozorlar va savdo yo'llari, fabrika va zavodlar, mehnatkashlar va ishchi kuchi, urbanizatsiya jarayonlari, aholi tarkibi va demografiya, maorif va madaniyat, islom va diniy hayot, transport va aloqa vositalari, boshqaruv tizimi va mahalliy hokimiyat, zamonaviylashuv jarayonlari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I4Y2025N14>

Uyezd markazi sifatida Namangan shahrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot mustamlakachilik tartiblariga mos ravishda boshqarila boshlandi. Butun Turkistonda bo'lgani kabi sanoat, savdo va paxtachilikning rivojlanishida temir yo'llarning qurilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Temir yo'llar avvalo harbiy maqsadlarda barpo etildi. Chunki keng hududni nazorat qilish uchun

Turkistonning istalgan viloyati yoki shahriga Rossiyadan tezkorlik bilan jangovar kuchlarni yetkazib kelish, ularni zarur o'q-dori va boshqa muhim resurslar bilan ta'minlash zarur edi. Shu bilan birga, bosib olingan hududda chegara tumanlarida yangi mudofaa inshootlarini qurish muhim vazifaga aylangan edi.

Chor hukumatining temir yo'llarning qurilishi harbiy strategiyaning ajralmas qismi bo'lib, shu bilan birga, mustamlaka boyliklarini samarali tashib ketishning asosiy vositasiga aylandi. Tuya karvonlari orqali tashilayotgan boyliklar mustamlakachilar talabini qondirmas edi. Shu bois o'lkaning yerosti va yer usti boyliklarini qudratli texnika - temir yo'l transporti orqali eksport qilish ustuvor vazifa sifatida belgilandi [1. – C. 28-29].

Turkiston o'lkasidagi ilk temir yo'l 1880-yil sentyabr oyida Mixaylov posti va Mullaqo'r o'rtasidagi 26 kilometrlik masofada qurildi. 1898-yilda Marv – Kushka yo'nalishi barpo etildi va bir yil o'tib Farg'ona vodiysi ham Toshkent orqali temir yo'l tizimiga ulandi [2. – B. 30]. 1908-yilda «Qo'qon – Namangan» temir yo'l jamiyati tashkil etilib, davlat tomonidan qurilayotgan temir yo'llar endilikda xususiy kapital hisobiga bunyod etila boshlandi. 4 million 584 ming so'mlik aksiya kapitaliga ega bo'lgan mazkur jamiyat Qo'qon – Namangan orqali Jalolobodgacha temir yo'l tarmoqlarini barpo etish huquqini oldi. 1912-yilda Qo'qon – Namangan temir yo'li to'liq qurilib, foydalanishga topshirildi.

Jadid taraqqiyparvarlari, jumladan, Cho'lpon, hukumat siyosati va jamoatchilik munosabatiga o'z qarashlarini bayon etgan edilar. Ular Farg'onada temir yo'l qurilishini ijobiy baholagan holda, bu jarayonning salbiy oqibatlariga ham e'tibor qaratdilar. Cho'lpon temir yo'l qurilishi tufayli mahalliy aholining o'z yerlarini arzon narxga sotib, markazlardan uzoqlashib, qashshoqlikka mahkum bo'lishi hamda ular o'rnini yevropalik muhojirlar egallayotganidan tashvishda edi.

Cho'lponning Vatan va ona tuproq haqidagi fikrlari bu masalada o'ta ibratlidir: «... Vatan tuprog'i shundoq onadurki, buni xor qildik, o'zimizning ham xor bo'lmo'g'imiz ko'z oldidadur... Tuproqdan yaratilduk, demoq tuproq tanimizdur, o'z tanimizni o'zimiz sotsak, beaqllik emasmi? Ajabo!...».

Temir yo'l qurilgandan keyin o'lkaning tabiiy boyliklarini arzon va qulay yo'llar orqali tashib ketish imkoni yaratildi. 1912-yilning o'zidayoq Farg'ona viloyatidan Rossiyaga 3 399 371 pud paxta, 452 740 so'mlik teri va 192 000 so'mlik pilla eksport qilingan edi [3. – B. 34-35]. Temir yo'lning ishga tushirilishi Turkistonda, jumladan, Namanganda ham Rossiyaga xizmat qiluvchi sanoat korxonalarining paydo bo'lishiga turtki berdi. Ushbu korxonalar asosan rus kapitalistlari manfaat yo'lida Turkiston xom ashyosini qayta ishlash vositasi sifatida faoliyat ko'rsatgan. Shu sababli, bu hududda, asosan, paxtani dastlabki qayta ishlashga ixtisoslashgan sanoat korxonalari tashkil etildi. Namangandagi birinchi paxta tozalash zavodi 1887-yilda qurilgan bo'lsa, 1888-yilda yana uchta shunday zavod barpo etildi va ishga tushirildi [4. 4-iyul]. 1892-yilga kelib shaharda paxta tozalash, oziq-ovqat va to'qimachilik sanoatiga oid jami 28 ta sanoat korxonasi mavjud bo'lgan bo'lsa, 1918-yilda ularning soni 44 taga yetgan. Ulardan 17 tasi paxta tozalash zavodi, 3 tasi yog'-moy zavodi, 3 tasi pillani quritish sexi, 1 tasi pivo zavodi, 3 tasi g'isht zavodi, 2 tasi bosmaxona va boshqa mayda sanoat korxonalari hisoblanadi [5. – B. 169-175].

XX asr boshlariga kelib, paxta tozalash zavodlarining faoliyatini kengaytirish mustamlakachilar uchun muhim masalalardan biriga aylandi. Farg'ona viloyatida sanoat korxonalarining sonidan ko'ra ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi muhim ahamiyat kasb etdi.

Namangan bu borada e'tiborga molik natijalarga erishgan. Masalan, 1913–1914-yillarda Andijondagi 26 ta zavod 7 533 053 pud paxtani tozalagan bo'lsa (har bir zavod o'rtacha 289 733 pud), Namangandagi 17 ta zavod 4 114 949 pud paxtani tozalagan (har bir zavod o'rtacha 242 056 pud) [6. – B. 2]. Shaharning sanoat tarmoqlari, asosan, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashga yo'naltirilgan edi. Bu sohada eng ko'zga ko'ringan yo'nalish paxta tozalash sanoati bo'lib, Namanganda paxtaning yangi navlarini sinab ko'rish uchun maxsus tajriba maydonlari ham tashkil etilgan. Qishloq xo'jaligining yana bir muhim tarmog'i ipakchilik bo'lib, uyezd hududidagi xo'jaliklarning 48,1% aynan ushbu sohaga ixtisoslashgan edi [7. – B. 15]. 1914-yilga kelib, Namanganda 28 ta paxta tozalash zavodi faoliyat yuritib, uyezdga ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining qariyb 90 foizi aynan shu zavodlarga to'g'ri kelgan [8. – B. 12]. Namangan shahridagi 3/4-sonli paxta tozalash zavodi eng keksalangan sanoat korxonalaridan biri bo'lib, 1917-yilga qadar shahardagi yirik sanoat obyektlaridan biri sifatida tanilgan. Zavodda beshta lintern va press uchun umumiy quvvati 60 ot kuchiga teng bo'lgan bir nechta dizel dvigatellari faoliyat yuritgan. Uning o'rtacha yillik paxta qayta ishlash hajmi 327 tonnani tashkil etgan. Zavodda 160-200 nafar ishchi mehnat qilib, kuniga 10-12 soat ishlagan va o'z mehnati uchun 50-70 tiyin miqdorida maosh olgan [9. – B. 16].

Namangandagi ilk yog'-moy zavodi esa 1912-yilda ishga tushirilgan. Uning qurilishi 1902-yilda savdogarlar Andrey Ivanovich Zingel, Karl Fyodorovich Reynesgagen va Pavel Stepanovich Voronkov tashabbusi bilan boshlangan. Ular shaharning hozirgi Abdusattor Rahimov ko'chasida yog' zavodi barpo etish uchun uyezd boshlig'idan ruxsat so'rashgan. U o'z navbatida Turkiston o'lkasi general-gubernatoriga murojaat qilib, 1902-yil 10 sentyabrda 12041-sonli qaror bilan zavod qurilishiga rasmiy ruxsat olgan. 1903-yilda zavod qurilishi boshlangan va ishchi kuchining ko'p va arzonligi sababli tez fursatda yakunlangan. Xom ashyo asosan chetdan aravada olib kelinib, ish jarayoni qo'l mehnatiga tayanilgan. Dastlabki davrda ishlab chiqarilgan yog' qayta ishlanmasdan mahalliy aholiga sotilgan hamda boshqa shahar va viloyatlarga yetkazilgan. Zavodning muhandis-texnolog Xofmeystarning ma'lumotlariga ko'ra, 1913-yilda korxonada 14 ta lint mashinasi, 3 ta Amerika press moslamasi, 50 ot kuchiga ega bug' mashinasi va 2 ta yonilg'i bilan ishlaydigan motor mavjud bo'lib, bir kecha-kunduzda paxta chiqindi qayta ishlanib, 40 950 kg (2500 pud) mahsulot olingan.

1913-yilning 1-oktyabridan 1914-yilning 1-mayigacha bo'lgan mavsumda zavod 2514 tonna mahsulot ishlab chiqargan. Jumladan, 380,9 tonna yog', 16,9 tonna lint, 1146,2 tonna sheluxa, 389,2 tonna kunjara va boshqa mahsulotlar tayyorlangan. Keyinchalik zavod «Zingel va Reynesgagen savdo uyi» sifatida faoliyat yuritgan, keyin esa «Andreev sanoat-savdo shirkati» tarkibiga kirgan [10. 5-sentabr].

Ushbu davrda rus va xorijiy kapital ishtirokida sanoat va savdo korxonalari paydo bo'lishi bilan birga, mahalliy sarmoyadorlarga tegishli sanoat va savdo korxonalari ham shakllangan. 1911-yilda Farg'ona viloyatidagi 157 ta paxta tozalash zavodining 107 tasi mahalliy boylarga tegishli bo'lgan. Mahalliy tadbirkorlar mustaqil ravishda yoki boshqa sarmoyadorlar bilan hamkorlikda zavodlarga egalik qilgan, bu esa yirik savdo-sanoat birlashmalarining vujudga kelishiga zamin yaratgan [11. – B. 9].

Namangan shahridagi yog' va ip-gazlama ishlab chiqaruvchi savdo-sanoat birlashmasi ham ana shunday yirik korxonalardan biri bo'lib, u mahalliy sarmoyadorlar o'rtasidagi bitimlar natijasida tashkil etilgan [12. 1-2 varaqlar]. Shu bilan birga, Namangan va Chust shaharlarida K. Sol'yeva, F. A. Yevseev, Rustambekov va K. Solovyev nomidagi paxta tozalash va teri oshlash

zavodlari faoliyat ko'rsatgan. Shu bilan birga, "Kavkaz va Merkurii" hamda "Vostochnyy" (Sharq) transport idoralari ham ishlagan. Bu korxonalar shahar xazinasiga yillik 10 271 so'm daromad keltirgan. Shu bilan birga, shahar ma'muriyati milliy hunarmandchilikni saqlab qolish va rivojlantirishga yetarlicha e'tibor qaratmagan. Natijada, butun o'lkada bo'lgani kabi, Namanganda ham Rossiya sanoat mahsulotlarining kirib kelishi mahalliy hunarmandchilikning pasayishiga sabab bo'lgan. Shunga qaramay, mahalliy tadbirkorlarning sa'y-harakatlari tufayli hunarmandchilikning ayrim tarmoqlari saqlab qolingan va asta-sekin rivojlantirilgan. Buni Namanganda ishlab chiqarilgan shoyi, beqasam va atlas matolari misolida ko'rish mumkin.

Beqasam to'qish texnologiyasi bilan boshqa matolardan ajralib turgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida beqasam matolarining eni taxminan 30–40 santimetrni tashkil etgan. Farg'ona vodiysining ko'p shaharlarida beqasam ishlab chiqarilgan bo'lsa-da, yo'l-yo'l mato to'qish bo'yicha yetakchi o'rin Namangan shahriga tegishli edi. Namanganda ishlab chiqarilgan beqasamlar yuqori sifati, pishiqligi va ohorining ustunligi bilan ajralib turgan [13. – B. 37].

Turkiston Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinganidan so'ng, o'lkaning barcha shaharlarida bo'lganidek, Namanganda ham sanoat korxonalari barpo etildi. Biroq bu sanoat to'liq mustamlaka xarakterida bo'lib, asosan Rossiya sanoati, ayniqsa, ip-gazlama sanoati manfaatlariga bo'ysundirilgan edi. Natijada, Turkiston, jumladan, Namangan sanoatining rivojlanish yo'nalishi ham shu mustamlakachilik manfaatlariga moslashtirildi. Paxta yetishtirish uchun ajratilgan yer maydonlarining kengayishi bilan paxtachilik sanoati ham jadal rivojlandi. Masalan, 1913-yilda shaharda mavjud bo'lgan 39 ta sanoat korxonasidan 28 tasi paxta tozalash zavodlari edi [14. – B. 28].

Turkistonning istilo etilishi natijasida Namangan ham metropoliya uchun xomashyo bazasi va tayyor mahsulotlar bozoriga aylandi. Shu sababli, paxta yetishtirish hajmi tobora ortib, u asosiy ekin turiga aylandi. Masalan, 1899-yilda Namangan uyezdida 14 ming gektar yerga paxta ekilgan bo'lsa, 1911-yilga kelib bu ko'rsatkich 45 ming gektarga yetdi. Biroq bu jarayon aholining qashshoqlashuviga sabab bo'lib, ersiz dehqonlar soni ortib bordi. Masalan, 1908-yilda Farg'ona vodiysida 18 foiz oila o'z ekin maydoniga ega bo'lmagan.

Farg'ona vodiysi, jumladan, Namangan shahri metropoliya uchun nafaqat xomashyo manbai, balki davlat xazinasiga soliqlar tushumi manbai sifatida ham xizmat qildi. Soliq yuki yil sayin ortib bordi. Masalan, 1900-yilda Farg'ona aholisi davlat xazinasiga yer solig'idan tashqari 4 581 620 rubl 70 kopeykamiqdorida mablag' topshirgan. Shu yili viloyat aholisi 399 497 rubl 34 kopeyka miqdordagi mahsulot solig'ini ham to'lagan. Bundan tashqari, mahalliy amaldorlar – volost kotiblari, oqsoqollar va boshqa mansabdor shaxslarning ehtiyojlari uchun "jamoat tushumi" deb atalgan qo'shimcha soliqlar ham yig'ilgan [15. – B. 15-16].

Natijada, mahalliy aholining qarz yuki yil sayin ortib borgan. Masalan, paxtakor dehqonlarning davlat va xususiy banklardan 1912-yilda olgan qarzi 156 million 712 ming rublni tashkil qilgan. Buning 80 million 979 ming rubli Farg'ona viloyati paxtakorlari zimmasiga to'g'ri kelgan. Natijada, ko'plab dehqonlar qarz botqog'iga botib, iqtisodiy inqirozga duch kelgan [16. – B. 400-401].

Farg'ona viloyati tarkibiga kiruvchi Namangan uyezdi aholisi ham mustamlaka zulmining og'ir oqibatlarini his etgan. Bu holat turmush darajasining keskin pasayishiga olib kelgan. Farg'ona vodiysining boshqa hududlarida bo'lganidek, Namangan shahrida ham nafaqat dehqonlar, balki o'n minglab hunarmand va kosiblar ham iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelgan. Bunday vaziyatga Rossiya sanoati tomonidan ishlab chiqarilgan uy-ro'zgor

buyumlari, ayniqsa yengil sanoat mahsulotlarining mahalliy bozorlarni to'ldirib yuborganligi sabab bo'lgan. Natijada, mahalliy hunarmandchilik mahsulotlari bozordan siqib chiqarilib, hunarmandchilikning ko'plab an'anaviy turlari inqirozga uchragan. Bu esa qashshoq aholi sonining ortishiga olib kelgan. Turkistonning Rossiya tomonidan bosib olinishi natijasida o'lkaga Yevropa tibbiyotining ayrim elementlari kirib kelib, tibbiy muassasalar tashkil etildi. 1868-yilda Toshkentda ilk harbiy lazaret ochildi. Keyingi yillarda ham tibbiy muassasalar barpo etildi: 1872-yilda Samarqandda 20 o'rinli shifoxona, 1873-yilda Xivada, 1891-yilda esa Buxoroda shifoxonalar faoliyat yurita boshladi.

Biroq, bu lazaret va shifoxonalar asosan harbiy qismlar qo'shida tashkil etilgan bo'lib, rus harbiylari va amaldorlari oilalariga xizmat ko'rsatgan. Mahalliy aholi esa tibbiy xizmatdan yetarlicha foydalana olmas edi, chunki tibbiy muassasalar yetarli emas edi va rus tilini bilmagan aholi shifokorlar bilan muloqot qila olmasdi. Ayniqsa, ayollar uchun statsionar tibbiy xizmat uzoq vaqt davomida tashkil etilmagandi. Faqat 1878-yilda Toshkentda xayriya jamiyati tashabbusi bilan 4 o'rinli tug'ruqxona ochildi, 1883-yilda esa bolalar va ayollar uchun ambulatoriyalar faoliyat boshladi.

Korxonalarda mahalliy ishchilarning ijtimoiy himoyasiga deyarli e'tibor berilmagan, ular antisanitariya sharoitda sutkasiga 14-15 soat mehnat qilishga majbur edi. Viloyatlardagi ahvol esa bundan-da yomon edi. Shu bois 1876-yili Namangan yaqinidagi Jiydakapa qishlog'ida epidemik vabo tarqaldi. Oqibatda to'rt kun ichida 20 kishi hayotdan ko'z yumdi [17. – B. 113].

Viloyat ma'murlari voqeadan vahimaga tushib, kasallik sabablari aniqlash uchun tibbiyot xodimini yubordi. Shuningdek, vabo bilan kasallangan bemorlar va dezinfektsiya ishlari uchun dorilar tayyorlash haqida qaror qabul qilindi. Boshqarma viloyatning boshqa hududlarida ham vabo belgilari haqida ma'lumot to'plash vazifasini bajardi.

Farg'ona viloyat boshqarmasi Jiydakapa qishlog'iga vrach Mazurkevich va feldsher yubordi [18. – B. 4-5]. Vabo bilan og'rikan bemorlar uchun dorilar xaridiga 1876-yil 4-oktyabrda 3384-sonli qarorga muvofiq 600 so'm ajratildi. Biroq, ajratilgan mablag'dan faqat 330 so'm dorilar uchun sarflanib, qolgan 270 so'm Qo'qon uyezdi xazinasi kreditini tiklash maqsadida yo'naltirildi. Chor hukumatining Turkiston boyliklaridan millionlab daromad olgan bo'lsa-da, mahalliy aholi tibbiy himoyasi uchun juda kam mablag' ajratardi [19. – B. 28].

Farg'ona viloyati vrachi 1090-sonli buyrug'iga asosan Namanganga yuborilgan doktor Preobrazhenskiy o'z raportida shunday deydi: «...Shu yilning 5-oktyabrdagi 1090-sonli buyruqiga muvofiq, men feldsher Ivanuyev bilan birgalikda Namanganga yo'l oldim. Maqsad – uyezdga tarqalgan kasallikning mohiyatini o'rganish va uning oldini olish choralari ko'rish» [20. – B. 50-54]. Namangan shahriga yetib kelgach, atrof qishloqlarda istiqomat qiluvchi oqsoqollar va mahalliy aholi bilan muloqot qilib, ularning sog'ligi haqida ma'lumot to'pladim. Ular orasida hech qanday yuqumli kasallik aniqlandi. Mish-mishlarga ko'ra, Jiydakapadan so'ng kasallik Namangandan 15 km uzoqlikda, Chust yo'lida joylashgan To'raqurg'on qishlog'ida ham kuzatilganligi aytiladi. Biroq, bu ma'lumot tasdig'ini topmadi. Namangan va Chust, shuningdek, Chust va Qo'qon uyezdida oralig'ida ham hech qanday yuqumli kasallik qayd etilmagan (doktor Preobrazhenskiyning 1876-yil 11-oktyabrdagi hisobotidan).

Shundan so'ng, viloyat rahbarlari Namangan shahrida ham shifoxona tashkil etish zarurligini anglab, Turkiston general-gubernatorligi huzuridagi Qurilish qo'mitasiga rasmiy murojaat yo'lladilar [21. – B. 3]. Qurilish qo'mitasi 1885-yil 26-yanvardagi 72-sonli xatida Turkiston general-gubernatoriga Namangan shahrida 12 361 so'm 68 tiyinlik shifoxona va unga

xizmat ko'rsatuvchi bino uchun 4 960 so'm 44 tiyinlik loyiha va smetani tasdiqlashni taklif qildi. Nihoyat, 1886-yilda Namangan shahrida 20 o'rinli shifoxona tashkil etildi [22. – B. 5-6]. 1895-yilga kelib, Namangan uyezdida 20 o'rinli shifoxona, mahalliy ayollar va bolalar uchun davolash muassasasi hamda harbiy lazaret faoliyat yuritgan. Shu yili shaharning daromadi 55 478 so'mni, xarajatlari esa 51 833 so'mni tashkil etgan bo'lib, bu mablag'dan atigi 10 450 so'm tibbiyot sohasiga yo'naltirilgan, xolos [23. – B. 69].

Tibbiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lgan dorishunoslik ham mustamlaka davrida Turkistonda rivojlanmagan sohalardan biri hisoblangan. Birinchi dorixona 1874-yilda Toshkentda tashkil etilgan. 1914-yilga kelib, butun Turkiston hududida jami 33 ta xususiy dorixona faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ularda 80 nafar dorishunos ishlagan. Biroq, qishloq aholisi dorixonalar xizmatidan deyarli foydalana olmagan. Shuningdek, tibbiy sanoat umuman mavjud emas edi. Turkiston o'lkasida yuqumli kasalliklar tufayli vafot etganlar soni juda yuqori bo'lgan. Masalan, 1892-yilda Farg'ona viloyati tibbiy hisobotida quyidagi ma'lumotlar qayd etilgan: «Aniq ma'lumotlarga ko'ra, 1892-yilda viloyat aholisi 846 040 kishini tashkil etgan. Yil davomida shifoxonalarda davolanib tuzalganlar soni 9 316 nafar bo'lgan bo'lsa, 6 388 kishi vafot etgan. 1891-yilda esa aholi soni 830 521 nafarni tashkil qilgan. 1892-yilda vrachlik xizmatiga 34 478 kishi murojaat qilgan bo'lib, ulardan 3 889 tasi hayotdan ko'z yumgan. Solishtirish uchun, 1891-yilda vrachlarga murojaat qilganlar soni 38 737 nafar bo'lib, ular orasida 64 kishi vafot etgan» [24. – B. 1-2]. Nafaqat Namanganda, balki butun Farg'ona viloyati va Turkiston o'lkasida ham vabo, tanosil kasalliklari va zahm keng tarqalgan edi. Tibbiy xizmatning yetarli darajada tashkil etilmaganligi tufayli bu kasalliklar yuqumli tus olib, ko'plab odamlarning hayotiga zomin bo'lgan. Xususan, vabo epidemiyasi tufayli o'lkada 38 ming kishi vafot etgan. 1892–1915-yillar davomida vabo epidemiyasi olti marotaba qayd etilgan.

Muammolardan biri tibbiy muassasalarining yetarli emasligi va shifokorlar asosan xorijiy millat vakillaridan iborat bo'lgani sababli mahalliy aholi ularga murojaat qilish imkoniyati cheklangan edi. Shuningdek, mustamlaka ma'muriyati tomonidan mahalliy xalqning tibbiy xizmatlardan foydalanishiga qator to'siqlar qo'yilgan. Masalan, 1914-yilda butun Turkiston bo'yicha atiga 64 ta shifoxona faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ularda jami 976 ta o'rin mavjud edi. Bu esa 10 ming nafar aholiga nisbatan atiga 2,3% kishining tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyati borligini ko'rsatadi. Eng achinarlisi, tibbiy xizmatlar to'lovli bo'lgan. Mustamlaka siyosati natijasida ko'plab soliqlar yuklangan, og'ir mehnat sharoitida hayot kechirgan mahalliy aholi esa o'z sog'lig'i uchun kerakli mablag'ni ajratish imkoniyatiga ega emas edi.

Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Farg'ona viloyati, jumladan, Namangan shahrida tibbiyot sohasida qiyin ahvolda edi. Viloyatda tashkil etilgan tibbiyot muassasalari soni juda kam bo'lib, ular asosan rus ma'murlari va ularning oilalariga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan edi. Mahalliy aholi orasida tibbiyot mutaxassislarining yo'qligi rus shifokorlari bilan muomala qilish imkoniyatini cheklab, bemorlarni og'ir holatda qoldirgan. Shu bois kasalliklar tufayli vafot etish keng tarqalgan holatga aylangan. Mustamlakachilik siyosati mahalliy aholining ijtimoiy va iqtisodiy hayotiga salbiy ta'sir o'tkazib, tibbiy xizmatlardan teng foydalanish imkoniyatini cheklagan. Bu siyosat aholini jaholat va qashshoqlik botqog'ida ushlab turishga yo'naltirilgan bo'lib, Namangan shahrining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy to'siq bo'lgan.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Ахмаджанова З.К. Железнодорожное строительство в Средней Азии и Казахстане. Конец XIX-начало XX в. -Т.: Фан, 1984. – С. 28-29.
2. Ахмаджанова З.К..... – С. 30.
3. Ахмаджанова З.К. Железнодорожное строительство в Средней Азии и Казахстане. Конец XIX-начало XXв. – Т.: Фан, 1984. – С. 34-35.
4. Туркстанские ведомости. 1898. 4 июля.
5. Ўзбекистон тарихи. II- том . – Т.: Ўзбекистон, 1971 . – Б. 169-175.
6. Обзор Ферганской долины за 1892 г. Новый Маргилан, 1895 г. С II.
7. Усманов И. Зарождение капиталистических отношений в сельском хозяйстве Ферганской долины (конец XIX – начало XX вв.). Автореф: дис.к.и.н. -Ташкент, 1983. – С. 15.
8. Обзор Ферганской долины за 1892 г. Новый Маргилан, 1895. – С.12.
9. Мирзалиева Э., Бозорова М. Наманганинг XIX аср бошида социал - иқтисодий ва маданий ривожланиши. -Наманган, 1998. –Б.16.
10. Носиров О. Шахримизнинг кўхна корхонаси // Наманган ҳақиқати. 1998 йил. 5 сентябр.
11. Рахимов М. История Ферганы. – Тошкент: Фан. 1984. – С. 9.
12. ЎзР МА. 214-фонд, 1-рўйхат, 1-иш, 1-2-варақлар.
13. Маҳкамова М.С. Беқасам. – Т.: Фан, 1971. – Б. 37.
14. Акрамов З.М. Наманганская область (историко-географический очерк). –Т.: Из-во АН Уз ССР. 1954. – С. 28.
15. Касимбеков К.Ф. Из истории народных движений в Фергане в конце XIX начало XX века. – Тошкент.: Фан, 1978. – С. 16-17.
16. Зиёев Ҳ. Туркистонда Россия тажаввузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. – Тошкент.: Шарқ, 1998. – Б. 400-401.
17. ЎзР МА. 19-фонд, 1-рўйхат, 10390-иш. 113-варақ.
18. ЎзР МА. 19-фонд, 1-рўйхат, 10390-иш, 4-5-варақлар.
19. ЎзР МА. 19-фонд, 1-рўйхат, 10390-иш, 28-варақ.
20. ЎзР МА. 19-фонд, 1-рўйхат, 10390-иш, 50-54-варақлар.
21. ЎзР МА. 1-фонд, 2-рўйхат, 208-иш, 3-варақ.
22. ЎзР МА. 1-фонд, 2-рўйхат, 208-иш, 5-6-варақлар.
23. Брокгауз Ф.А., Ефронь И.А. Энциклопедический словарь. Т. -XX. С.Петербург. Типо-литография. И.А. Ефрона, 1897. – С. 69.
24. ЎзР МА. 19-фонд, 2-рўйхат, 204-иш, 1-2-варақлар.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).